

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT SUB'EKTALARINI BOJXONA AUDITI UCHUN TANLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Abdukaxxarov Shuxrat Abidjanovich

Bojxona instituti Magistratura bosqichi tinglovchisi, Toshkent shahri, O'zbekiston

Respublikasi, e-mail: abdukaxxarovshuxrat@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy bojxona tizimida xavflarni boshqarish tizimi ma'lumotlariga tayangan holda tanlab tekshirishga asoslangan bojxona audit faoliyati joriy etilishi, ushbu tizimni qo'llashning afzalliklari to'grisida fikrlar yuritilib, nufuzli xalqaro tashkilotlar manbalarida mazkur tizimni ishlash prinsiplari talqini hamda ushbu manbalardan olingan tavsiyalarni milliy bojxona audit tizimida qo'llash yuzasidan takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Bojxona audit, Jahon bojxona tashkiloiti, xavf mezonlari, xavf indikatorlarini, xavf darajasini oshirishi mumkin bo'lgan omillarini.*

Аннотация: В данной статье рассматривается внедрение таможенно-аудиторской деятельности на основе данных системы управления рисками в национальной таможенной системе, преимущества использования этой системы, трактовка принципов работы этой системы в источниках, и в том числе, изходя с рекомендации авторитетных международных организаций обсуждаются и даются предложения по применению в национальной системе таможенно-аудита.

Ключевые слова: таможенный аудит, Всемирная таможенная организация, критерии риска, индикаторы риска, факторы, способные повысить уровень риска.

Abstract: *In this article, the introduction of the customs audit activity based on selective inspection using the risk management system in the national customs system, the advantages of using this system, the interpretation of the principles of operation of this system in the sources of authoritative international organizations and the recommendations obtained from these sources are discussed and also suggestions are made regarding application in the national customs audit system.*

Key words: *Customs audit, World Customs Organization, risk criteria, risk indicators, factors that can increase the level of risk.*

2020 yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatichilagini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-son Fanmoni asosida bojxona organlari faoliyatida bojxona auditini qo'llash belgilandi. Shuningdek, ushbu farmon ijrosini taminlash maqsadida qabul qilngan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bojxona auditini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2021 yil 25 fevraldag'i 101-sonli Qarori asosida xavflarni boshqarish

tizimiga muvofiq tanlab tekshirishga asoslangan bojxona auditini tizimi amaliyotda qo'llanila boshladi.

Bojxona auditini tashkil etilishdan asosiy maqsad – eksport va import operatsiyalari asosida davlatlar chagarasidan o'tgan har qanday tovar va transport vositalarining, tovar nomenklaturasidagi uyg'unlashgan kodlarga muvofiq, bojxona yuk deklaratsiyasida aks ettirilgan bojxona qiymati to'g'ri hamda haqqoniy (real) hisoblanganligini aniqlashdan iborat [1].

Bojxona auditini tashkil etilishining asosiy sababi shundaki, bojxona organlari tadbirkorlik sub'ektlarining barchasini yoppasiga bojxona nazoratidan o'tkazish o'rniga ma'lum xavf mezonlari va indikatorlariga asoslangan holda halol tadbirkorlarining tovatlarini soddalashtirgan tartibda bojxona nazoratidan o'tkazadi. Mazkur tartibga o'tishning zaruriyati shundan iboratki, avvalo tashqi savdo jarayonini soddalashirish, mahsulotlarni bojxona nazoratidan o'tkazishni tezlashtirish va halol tadbirkorlarni rag'batlantiorishdan iborat.

Demak, mazkur tizimdan foydalanish ko'lamini kengaytirish ushbu masalada rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqsadda, rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, jahonning etakchi rivojlangan mamlakatlar (Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Farbiy yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya) amaliyotida tovarlarning erkin muolmalaga chiqarib yuborilgandan so'ng bojxona nazoratidan o'tkazish umimiy tovarlarning qariyb 90 foizini tashkil qilmoqda.

Bu sohada koplab xorijlik olimlar Kudryaysev O. E., Salavyev V.V., Lunevalar E.P. izlanishlar olib borib nazariy qarashkarini bildirib o'rganlar. Mazkur qarashlarda ikki xil talqin mavjud bo'lib, Bojxona auditini bojxona nazoratining bir shakli ekanligi yoki, tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan so'ng o'tkaziladigan alohida kompleks chora tadbirlar shakli sifatida ko'rsatib o'tilgan. Mazkur fikrlarning asosida bojxona auditining asosiy maqsadi – eksport va import operatsiyalari asosida davlatlar chegaralaridan o'tgan tovar va transport vositalarini xavf mezonlariga asoslangan tanlab tekshirish prinsiplari asosida aniqlangan bojxona yuk deklaratsiyasida aks ettirilgan bojxona qiymati to'g'ri hamda haqqoniy xisoblanganligini aniqlashdan iborat.

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasining ko'plab olimlari bojxona auditini, uni tashkil etish borasida izlanishlar olib borilgan. Hususan, B.Q.Hamdamov, S. Aripov, J.Qodirov, SH. Azizov, M. Karimjonov, Z.Makkamovlar munozaralar yuritib, bojxona auditini Respublika tashqi savdo tovar aylanmasini yanada faollashtirish maqsadida TIF sub'ektlari manfaatlarini ichki va tashqi bozorlarda himoya qilishni kuchaytirish, ularning faoliyatini yanada erkinlashtirish, xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarini transportda tashish xarajatlarini kamaytirish, bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlar monitoringini muntazam o'tkazilishini ta'minlash lozimligi yuzasidan fikrlar bildirilgan [2].


Zero, mamlakatlararo xalqaro integratsiya, globallashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgan bir vaqtida etakchi xorijoy davlatlar tajribalari va nufuzli xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida ko'rsatib o'tilgan ilg'or metodlarni keng joriy etish doimo muhim bo'lgan. Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lish harakalarini izchil amalga oshirayotgan Jahon savdo tashkilotining 2014 yildagi "Savdo tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida"gi bitimning 7.5 moddasida hamda, Kioto konvensiyasining 6.6 standartida alohida izohlab o'tilgan.

Shuningdek, Jahon bojxona tashkilotining 2018 yildagi "Bojxona audit o'tkazish yuzasidan qo'llanma" sida ham Bojxona auditini qollash orqali bojxona organlari o'zlarining mavjud kuch va vositalarini maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llashlari oqibatida samaradorlikka erishishi va biznes yuritish sub'ektlari bilan do'stona munosabatga kirishishi, qonunlarga bo'ysinuvchalikning oshishi, savdoni rag'batlantirilishi kabi ijobiy natijalarga erishilishini ta'kidlab o'tgan.

Taktik jihatdan xavf mezonlari va indikatorlarini shakllantirishda quyidagi mezonlarga asoslanish tavsiya etiladi:

-  import/eksport qiymatlari va hajmlari;
-  import/eksport qilinadigan tovarlar turlari;
-  import qiluvchi/eksport qiluvchi yoki tovarlarga nisbatan oldingi qoidabuzarliklar;
-  birinchi marta import qiluvchi/eksport qiluvchi.

Bojxona organlari o'z maqsadlarini tog'ri yo'naltirish uchun Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarini quyidagi to'rt toifaga bo'ladi:



Yuqorida sanab o'tilgan xavf turlarining har qandayida xavf darajasini oshirishi mumkin bo'lgan boshqa quyidagi omillarini baholash zarur:

- 
- soliq organlari va boshqa bojxona bo‘linmalaridan va har qanday boshqa davlat organidan olingan ma‘lumotnomalar;
 - bojxona to‘lovlaridan qochish xavfiyuqoriligi;
 - ustivor davlat dasturi yoki maxsus razvedka ma‘lumotlari mavjudligi;
 - savdoga asoslangan pul yuvish xavfi mavjudligi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bojxona auditini qo‘llashga asoslanib tovarlarni bojxona nazoratidan o‘tkazish jarayonidan foydalanish bojxona tartibotlariga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Bojxona nazorati jarayonida amalga oshirish mumkin bolmagan nazoratning boshqa turlari yani buxgalteriya hujjatlaridagi ma‘lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish imkonini yaratadi.

Biroq, Juhon bojxona tashkiloti tomonidan quyidagi tavsiyalar berilgan:

- noqonuniy savdo qilish darajasi yuqori bo‘gan hamda naqd pul asosida tovarlarni sotib olish imkoniyati bolgan davlatlarda bojxona audit etarli dartajada o‘z samarasini bermaydi. Bunday davlatlar uchun bojxona nazoratini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash mumkin bo‘lgan yagona usuli bu – havfni boshqarish mezoniga asoslangan tovarlarni bojxona nazoratidan o‘tkazishdir;

- shuningdek, bojxona organlari kerakli bo‘lgan muvofiqlik darajasini oshirishni davom ettirishi va norasmiy sektorda faoliyat yuritayotganlarni o‘z tartiblarini bojxona talablariga muvofiqlashtirishklari uchun imkoniyat va yordam berish ta’minlashi lozim.

Shu bilan birga, “Juhon Bojxona Tashkilotining bojxona qiymati bo‘yicha tavsiyalar”da quyidagi mazmundagi jumlalar keltirib o‘tiladi:

“Bojxona rasmiylashtirushi jarayonida bojxona xodimlari cheklangan hujjatlar ya’ni, invoys, yo‘l yuk hijjatlari, kanosomentlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bojxona qiymatini samarali nazorat qilish uchun esa, bojxona rasmiylashtirushi jarayonida ko‘rish imkon bo‘lmaydigan importyorning buxgalteriya qaydlari va boshqa ma‘lumotlar aks ettirilgan hujjatlar talab qilinadi. Bojxona qiymatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan boshqa to‘lovlar bilan bog‘liq hujjatlar masalan korxona agenti to‘g‘risida shartnoma yoki bir qismiga egalik to‘g‘risidagi shartnomalarni ham bojxona rasmiylashtirushi jarayonida ko‘rish imkon bo‘lmaydi. Bojxona audit jarayonida esa bunday cheklovlarning bo‘lmasligi, ushbu nazorat shaklini qo‘llash bojxona qiymatini to‘g‘ri belgilanganligini nazorat qilishdagi mavjud bo‘lgan echimlarning eng optimali sifatida qaralishiga sabab bo‘ladi” [4].

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan shuni hulosa qilish mumkinki, tovarlarning erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan so‘ng o‘tkaziladigan bojxona audit jarayonida, tugallangan bojxona rejimi asosida chiqarib yuborilgan tovarlar bevosita ularni eksport va importini amalga oshirgan TIF qatnashchilarida bo‘lmasligi, aksincha

ular realiuzatsiya qilingan bo'lishiga aloxida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuningdek, bojxona auditni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tlazilgan tovarlarni tekshirish emas balki, deklorant yoki boshqa TIF qatnashchilari tomonidan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan dekloratsiya va boshqa hujjalari, buxgalteriya hisobi-kitoblari va oldi-sotdi shartnomalarini tekshirish asosida audit qilishdan iborat ekanligi tushuniladi. Audit jarayonida auditor tomonidan bojxona chegarasidan olib o'tilgan va chiqarib yuborilgan tovarlar bojxona auditining tekshiruv ob'ekti sifatida olinishi jiddiy tushunmovchiliklarga olib keladi.

Shu yo'sinda bugungi kundagi milliy qonunchiliginizda amalda mavjud bo'lgan ayrim normalardagi qoidalarga xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini taqqoslasak, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-fevraldagi 101-son qarori asosida qabul qilingan "Bojxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 61-bandi talablari asosida erkin muomalaga chiqarib yuborilgan tovatlardan namunalar va (yoki) nusxalar olinishi nazarda tutilgan. Amaliyotda ko'plab tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan so'ng naqd pul asosida sotib yuborilishi tabiiy xol. Bu esa o'z navbatida xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini milliy qonunchiligimizda qo'llashda, bojxona auditni jarayonida audit ob'ektlarini va xavf mezonlarini tanlashga alohida e'tibor qaratish lozimligini anglatadi.

O'ylaymizki, yuqorida qahonnig nufuzli xalqaro tashkilotlari va etakchi davlatlkarning ilg'or tajriba va tavsiyalarini o'rganish ular metodologiyasidagi yutuqlarni O'zbekistonda qo'llash bo'yicha imkoniyatlarni tahlil qilib, quyidagi mulohazalarni keltirishni joiz deb hisoblaymiz:

birinchidan, bojxona auditiga tanlash jarayonida audit ob'ekti sifatida erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar emas balki tovatlar yuzasidan TIF ishtirokchilari tomonidan rasmiylashtirilgan xujjalarni tanlanishiga aloxida etibor qatatilishi maqsadni to'g'ri yo'naltirilishiga va natijadorlikni oshishiga olib keladi;

ikkinchidan, mamlakatimiz hamda o'zaro tashqi savdoga kiruvchi mamlakatlarning soliq, bojxona va boshqa hiqujni muhofaza qiluvchi organlari bilan yanada uzviy hamkorlikni o'rnatish masalalarini jadallashtirish, o'z navbatida tezkor va ishonchli axborot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali xavf yuqori bo'lgan TIF ishtirokchilarini to'g'ri tanlab olishga va mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanishga erishiladi;

uchinchidan, tovarlarni bojxona nazoratidan o'tkazishning bojxona auditni usulini tovarlarni erkin muomalaga chiqarishdan so'ng naqd pul asosida erkin realizatsiyaga chiqib ketishi mumkin bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llamaslik, balki ularga nisbatan havflarni qo'llash prinsiplariga asolangan boshqa bojxona nazorati shakllarini qollash maqsadga muvofiq bo'ladi;

to'rtinchidan, tugallanmagan bojxona rejimlarida ya'ni qayta ishslash bojxona rejimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf mezonlarini ishlab chiqgan holda

bojxona auditi asosida soddalashtirilgan bojxona nazorati turlarini qo'llsh orqali iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy axborot agentligi. <https://uza.uz/uz/posts/bozhkhona-auditi-tadbirkorlarning-va-ti-va-moliyaviy-kharazh-16-09-2020>
2. "Bojxona auditi asoslari" (2021) O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti. J.Qodirov, Sh.Azizov, M.Karimjonova, Z. Makkamov.
3. World customs organization. Guidelines for post-clearance audit. June.2018. volume 1.
https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/global/pdf/topics/key-issues/revenue-package/pca_guidelines_voll.pdf?la=en.
4. World customs organization. Monitoring Report on Post Clearance Audit. October.2022. <https://www.wcoomd.org/en/media/newsroom/2022/june/pca-monitoring-and-follow-up-mission-to-uzbekistan.aspx>